

SOG‘LOMLASHTIRISH VA REKREATSION HUDUDLAR KADASTRINI YURITISHDA GATNING O‘RNI

Nurmatov Muxammadqosim Zokir o‘g‘li

Qarshi davlat texnika universiteti, 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20623106>

Annotatsiya: Mazkur maqolada sog‘lomlashtirish va rekreatsion hududlar kadastrini yuritishda GATning o‘rni, davlat kadastrlari, yer resurslari, hududiy rejalashtirish va geoma’lumotlarni yagona tizim asosida yuritish maqsadida milliy geografik axborot platformalari yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль Государственной географической информационной системы в ведении кадастра зон здравоохранения и отдыха, а также национальных географических информационных платформ для ведения государственных кадастровых записей, учета земельных ресурсов, территориального планирования и геоданных в рамках единой системы.

Abstract. This article discusses the role of the State Geographic Information System in maintaining a cadastre of health and recreational areas, as well as national geographic information platforms for maintaining state cadastres, land resources, territorial planning, and geodata on a unified system.

Kalit so‘z: Rekreatsion hududlar, geoportall, kadastr, GAT va GPS texnologiyalari.

Ключевые слова: Рекреационные зоны, геопространственные, кадастровые, технологии ГИС и GPS.

Key words: Recreational areas, geospatial, cadastral, GIS and GPS technologies.

O‘zbekiston Respublikasida geografik axborot tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha asosiy huquqiy asoslardan biri “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hisoblanadi hamda mazkur strategiyada davlat kadastrlarini raqamlashtirish, elektron xaritalarni shakllantirish va geoma’lumotlar almashuvining yagona tizimini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF–6243-sonli Farmonida yer munosabatlari va kadastr sohasi tizimini modernizatsiya qilish, geoinformatsion texnologiyalarni joriy etish hamda davlat kadastrlarining yagona elektron bazasini shakllantirish vazifalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu farmon milliy geoportal tizimini rivojlantirishning muhim huquqiy asosi hisoblanadi. Real vaqt rejimidagi geoportal tizimlari quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ❖ yer maydonlari va ko‘chmas mulk obyektlarini onlayn kuzatish;
- ❖ kadastr sohasi xaritalarini avtomatik yangilash;
- ❖ sun‘iy yo‘ldosh tasvirlari orqali hududiy monitoring olib borish;
- ❖ dam olish va sog‘lomlashtirish hududlari chegaralarini aniqlashtirish;
- ❖ noqonuniy yer egallash holatlarini tezkor aniqlash;
- ❖ hududiy rejalashtirish va investitsion loyihalarni tahlil qilish.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida davlat kadastrlari, yer resurslari, hududiy rejalashtirish va geoma’lumotlarni yagona tizim asosida yuritish maqsadida milliy geografik


axborot platformalari bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. Ushbu tizimlar orasida milliy geoportal va real vaqt rejimida ishlovchi geoma'lumotlar bazalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz Milliy geoportal platformasi bu davlat organlari, tashkilotlar va foydalanuvchilar uchun geografik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va onlayn shaklda taqdim etishga xizmat qiluvchi yagona elektron platformadir.


Rekrasion hududlar kadastrini yuritishda real vaqt rejimidagi geoportal tizimlari ayniqsa muhim hisoblanadi. Sababi bunday tizimlar orqali dam olish maskanlari, turistik obyektlar, muhofaza zonalari va infratuzilma elementlari haqidagi ma'lumotlarni muntazam yangilab borish mumkin bo'ladi. Bu esa hududlardan oqilona foydalanish, ekologik monitoring olib borish va turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirda real vaqt rejimidagi geografik axborot tizimlari sun'iy yo'ldosh tasvirlari, GPS texnologiyalari va masofadan zondlash ma'lumotlari asosida hududiy monitoring olib borish imkonini beradi. Ushbu tizimlar orqali yer maydonlari holatini kuzatish, noqonuniy qurilishlarni aniqlash, rekrasion hududlar chegaralarini monitoring qilish hamda kadastr sohasi xaritalarini tezkor yangilash mumkin bo'ladi.

Bu esa rekrasion hududlardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va noqonuniy holatlarning oldini olish uchun huquqiy asos yaratadi. Shuningdek, rekrasion hududlar kadastrini yuritishda Kadastr agentligi ning roli muhim ekanligi qayd etildi. U hududlarni ro'yxatga olish, chegaralarni aniqlash, elektron bazaga kiritish va doimiy monitoring qilish bilan shug'ullanadi.



1-rasm. Milliy geoportal orqali joyning fazoviy tahlili.



2-rasm. Geoportal orqali konturlar joylashuvi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va elektron xaritalardan foydalanish esa kadastr sohasi ma'lumotlarining aniqligi va tezkorligini oshirmoqda. Rekrasion hududlar kadastr ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vosita hisoblanadi.

Mana shu tizim orqali tabiiy resurslar, landshaftlar va ekologik holat nazorat qilinib, atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa tabiiy boyliklarni kelajak avlod uchun saqlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, kadastr sohasi ma'lumotlari turizm va investitsiya faoliyatini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Bu esa hududlarning salohiyatini baholash, yangi turistik obyektlarni joylashtirish va investorlarni jalb qilishga yordam beradi. Natijada iqtisodiy rivojlanish, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi farovonligi oshishiga xizmat qiladi.

Sh sababdan geoportal tizimlari rekrasion hududlar kadastrini yuritishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Sababi GAT texnologiyalari orqali dam olish maskanlari, sog'lomlashtirish obyektlari va turistik hududlarning fazoviy joylashuvi, infratuzilma holati hamda foydalanish darajasi tahlil qilinadi. Natijada hududlardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va turizm salohiyatini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Rekreasion hududlar va aholini sog'lomlashtirish obyektlari kadastr davlat yer resurslarini boshqarish tizimida muhim o'rin egallaydi. Bunday hududlar aholining dam olishi, sog'lig'ini tiklashi, ekologik muvozanatni saqlash hamda turizm sohasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni samarali boshqarish va muhofaza qilish dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois rekreatsion hududlar bo'yicha aniq va ishonchli kadastr sohasi ma'lumotlarini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- 1.Safarov E.Yu., Musaev I.M., Abduraximov X.A. Geografik axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent., TIMI, 2009.
2. Алиқулов, Ф., & Аралов, М. (2022). РЕЛЬЕФНИНГ РАҚАМЛИ МОДЕЛЛАРИНИ УЧУВЧИСИЗ УЧИШ АППАРАТЛАРИ ЁРДАМИДА ЯРАТИШ. Innovatsion Texnologiyalar, 1(4), 131–134.

3. Aralov, M. M. (2022). MUHANDISLAR TAYYORLASH TA'LIMINING MUAMMOLARI VA YUTUQLARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 107–111.
4. Nurillayeva, S., & Aralov, M. (2024). QARSHI TUMANINING RAQAMLI EKOLOGIK KARTASINI GEOAXBOROT TIZIMI ASOSIDA YARATISH. *GOLDEN BRAIN*, 2(20), 188-193.